

## Peculiarities of social and emotional development of children of the preparatory group

Nargiza KUCHKOROVA<sup>1</sup>, Donokhon MASHARIPOVA<sup>2</sup>

Олийгоҳ (Cambria Math-11)

### ARTICLE INFO

#### Article history:

Received February 2023  
Received in revised form  
15 February 2023  
Accepted 15 March 2023  
Available online  
25 April 2023

#### Keywords:

training group,  
social-emotional  
development,  
social adaptation,  
communication,  
"I" concept,  
emotions, psychological  
preparation,  
social environment,  
pedagogue.

### ABSTRACT

This article provides information about the social and emotional development of children of the preparatory group, their adaptation to the social environment, the process of communication with adults and their peers, and the composition of the concept of "I" at 6-7 years old children, the formation and management of emotions in them characteristics are highlighted.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss2-pp152-157>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Tayyorlov guruh bolalarini ijtimoiy va hissiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari

### ANNOTATISYA

#### Kalit so'zlar:

tayyorlov guruhi,  
ijtimoiy-hissiy rivojlanish,  
ijtimoiy moslashuv,  
muloqot,  
"Men" konsepsiyasi,  
hissiyotlar,  
psixologik tayyorgarlik,  
ijtimoiy muhit,  
pedagog.

Ushbu maqolada tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy va hissiy jihatdan rivojlanishi, ularning ijtimoiy muhitga moslashuvi, kattalar va o'z tengdoshlari bilan muloqot jarayoni haqida ma'lumot berilgan hamda 6-7 yoshli bolalarda "Men" konsepsiyasining tarkib topishi, ularda hissiyotlarning shakllanishi va boshqarish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

<sup>1</sup> PhD, Associate Professor, Methods of Preschool Education Department, Urgench State University. Urgench, Uzbekistan. E-mail: kuchqarova06071979@gmail.com

<sup>2</sup> Teacher, Methods of Preschool Education Department, Urgench State University. Urgench, Uzbekistan. E-mail: donomasharipova25@gmail.com

# Особенности социально-эмоционального развития детей подготовительной группы

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

учебная группа,  
социально-эмоциональное  
развитие, социальная  
адаптация,  
общение,  
концепция «Я»,  
эмоции,  
психологическая  
подготовка,  
социальная среда,  
педагог.

В данной статье представлены сведения о социально-эмоциональном развитии детей в подготовительной группе, а также об их адаптации к социальной среде и процессе общения со взрослыми и сверстниками. Также в статье рассматривается состав понятия «Я» у детей в возрасте 6-7 лет и выделяются особенности процесса формирования и управления эмоциями. Отдельное внимание уделяется психологической подготовке детей.

## KIRISH

Yurtimizda kelajak avlodning barkamol shaxs bo'lib shakllanishi, yuqori bilim egallashi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqida " Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi"- deya ta'kidladilar [1].

Ayni damda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga sifatli tayyorlash masalasi eng muhim vazifalarimizdan biridir. Ularning bilim egallashi, kelajakda o'z o'rnini topishi, yurtimiz koriga yaraydigan aql-idrokli inson bo'lib yetishishi uchun yoshlik vaqtdan boshlab rivojlanishiga alohida e'tibor qilish kerak.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zini anglash hamda o'zini idrok qilish psixologiyadagi eng qiyin muammolardan biridir. Psixologlardan B.G. Ananyeva, A.S. Arsentieva, A.A. Badaleva, I.S. Kon, S.A. Rubinshteyn, E. Elkonin va boshqalar shu muammo doir tadqiqotlar olib borishgan. R. Ouen, Ch. Darvin, Makarenko, M.I. Lisina, Kolomenskiy va boshqalar bolalar psixologiyasi bilan bog'liq fikrlar bildirishgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tayyorlov guruhi bolalarini ijtimoiy va hissiy jihatdan rivojlantirishning ahamiyati muhokama qilinadi. Xususan, 6-7 yoshli bolalarda kattalar va o'z tengqurlari bilan muloqot jarayoni, ularda "men" konsepsiyasi va his-tuyg'ularning shakllanishi tavsiflanadi. Bolaning maktabda bilim olishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishi va psixologik-emotsional rivojlanishi tahlil etiladi.

## TAHLILLAR VA NATIJALAR

Farzand – inson hayotining mazmuni, nasl-nasabining davomchisi, kelajak poydevoridir. U tug'ilishi bilan butun oila quvonchga to'ladi. Ota-onaning esa mas'uliyati yanada ortadi.

Oilada farzand dunyoga kelganidan boshlab oilaning jamiyat oldida javobgarligi kundan kunga ortib boradi [2]. Chunki bola tug'ilishi bilan duch keladigan ijtimoiy muhit-oiladir. Bola oila a'zolarini xatti-harakatlarini kuzatadi, ulardan har xil vaziyatda o'zini

qay holda tutish, qanday soʻzlarni qoʻllash mumkinligini zimdan kuzatib, shuni takrorlashga harakat qiladi. Bunday jarayonda esa ota-ona bola uchun namuna boʻladi. Ular orasidagi munosabatlar bolalarga oʻrnak boʻladigan darajada samimiy, mehrli boʻlishi lozim.

Haqiqatan ham bola uchun oila birinchi ijtimoiy muhit hisoblanadi. U oila aʼzolari bilan ijtimoiy munosabatga kirishadi, ular bilan muloqot qiladi. Soʻngra bola ulgʻaygan sari uning ijtimoiylashuv doirasi kengaya boradi, yaʼni u bogʻcha yoshiga yetganidan keyin oʻsha maktabgacha taʼlim tashkilotida oʻziga doʻst orttiradi. Oʻz tengdoshlari bilan muloqotga kirishadi, ular bilan oʻyinlar oʻynaydi.

Inson shaxsining rivojlanishi toʻrt manbaga: irsiyat, ijtimoiy muhit, taʼlim-tarbiya, shaxsiy faollikka bogʻliqdir [3]. Bola dunyo yuzini koʻrishi bilan atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatga duch keladi.

Maktabgacha yosh davri – inson hayotidagi muhim, oʻziga xos davrdir. Bu atrofdagi dunyoni faol bilish vaqtidir [4]. Bu vaqtda bola atrofdagi voqea-hodisalarga katta qiziqish bilan qaraydi.

6-7 yoshli bola aqliy, jismoniy va shu bilan birga, psixologik jihatdan ham maktab taʼlimiga tayyor boʻlishi lozim. Bu jarayonda faqatgina bolaning aqliy va jismoniy faolligi, bilimlarni oʻzlashtira olishi asosiy oʻrinda boʻlmasligi zarur. Bola muloqatchan, nutqi rivojlangan boʻlsa, tushunmagan narsalarini soʻrab bilib oladi.

Takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat oʻquv dasturiga muvofiq, maktabgacha yoshdagi 6-7 yoshli bolaning tayanch kompetensiyalarining toʻrt turi mavjud:

- ✓ kommunikativ;
- ✓ ijtimoiy;
- ✓ shaxsiy (“Men” konsepsiyasini qurish);
- ✓ bilish.

Bu 6-7 yoshli bolalarning tayanch kompetensiyalaridir. Ularning yaxshi rivojlanganligi bolaning keyingi davrida eng zarur jihatdir.

Kommunikativ kompetensiya – atrofdagi odamlar bilan oʻzaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega boʻlishni taqozo qiladi [5]. Nutqni rivojlantirish ham ushbu kompetensiya orqali amalga oshadi. Nutqning rivojlanganligi bolalarda bilim olishning yaxshi boʻlishida, fikrini aniq aytishida, boshqalar bilan tajriba almashishda ahamiyatli. Bolalar nutq bilan bogʻliq mashgʻulotlarga ijobiy nazar bilan qarashadi. Bunday mashgʻulotlar ular uchun juda sevimli. Bolalarda nutqni rivojlantirishda turli oʻyinlardan foydalanilsa, ular uchun yanada oson boʻladi.

Haqiqatan ham bolaning kommunikativ kompetensiyasi rivojlanganligi juda muhim. Chunki 6-7 yoshli bolaning muloqotchan boʻlishi va nutqining rivojlanganligi natijasida aytilgan maʼlumotni anglab, fikrlay boshlaydi hamda unga berilgan topshiriqlarni qiynalmay bajaradi. U tengqurlari va oʻzidan kattalar bilan muloqotga kirishib, anglay olmagan narsa-hodisalarni nutqi orqali hissiyotlarini ham qoʻshgan holda bayon qila oladi.

Bolaning rivojlanish kompetensiyalari oʻzbek pedagoglari tomonidan ham oʻrganilgan. Pedagog N.M. Quchqorova va R.S. Nuraddinovalar bu borada turli adabiyotlarni oʻrganib, shunday fikr bildirishgan: “Ijtimoiy kompetensiya – bu bolaning belgilangan tartib va odob-axloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyatidir” [6]. Bu kompetensiya sabab bola oʻzidan kattalarni hurmat qilishini, biror ish qilmoqchi boʻlganda ularning fikrini ham hisobga olish kerakligini anglab oladilar. Oʻzbek xalqida ijtimoiy munosabatlar yaxshi rivojlangan, bu farzandlar tomonidan ham shu zaylda davom etmoqda.

6-7 yoshli bolalarda ijtimoiy kompetensiyaning rivojlanishi juda muhim. Chunki ular yangi ijtimoiy muhitga qadam qo'yishadi. Maktabga borganlarida ular yangi muhit, yangi insonlar, yangi tartib-qoidalarga duch keladi.

O'zini qadrlash, ishiga mas'uliyatli bo'lish, o'zining har kungi faoliyatini boshqarish kabilar shaxsiy kompetensiya orqali shakllanadi.

Bolalarda o'zi haqida ijobiy baho shakllantirish, o'z qadrini bilishga o'rgatish uchun, o'zini anglashi uchun turli o'yinlarni qo'llash mumkin. Masalan: "Men o'zim haqimda nimani bilaman", "Men nimani eshityapman", "Sizning portretingiz", "Yasanish o'yini", "Men chiroyliman", "Mehr yuragi" va shu kabilar.

"Men chiroyliman" o'yini.

Maqsad: Har bir bolada o'zi haqidagi ijobiy bahoni shakllantirish.

Materiallar: Rangli qalamlar, qog'oz.

O'yin jarayoni:

1. Pedagog bolalar bilan quyidagi savollarni muhokama qiladi: "Siz kimsiz?", "Siz nima bilan tez-tez shug'ullanasiz?", "Do'stingiz qanday munosabatda bo'ladi?"

2. Bolalarni o'zlarini chiroyli va yaxshi deb baholashga yo'naltiradi.

3. Bolalarga qalam va qog'oz berib, o'zlarini chiroyli va yasangan ko'rinishda chizish taklif qilinadi.

4. Pedagog chizilgan rasmlarni muhokama qiladi, bolalarning e'tiborini ularning o'z rasmlarining ijobiy tomonlariga qaratadi.

Bolalarning rasmlari ko'rgazmasi namoyish qilinadi (1-rasm).



**1-rasm. Bolalarning quvnoq holati tasviri**

Bu rasmda bolalarning o'zi haqidagi ijobiy qarashlari aks etgan bo'lib, bolalar maktabgacha davrdan boshlab, o'ziga nisbatan ijobiy fikrlashni o'rganishi zarur.

Bilamizki, men tushunchasi bolaning 5 yoshigacha shakllanib bo'ladi. Bolaning o'z-o'zini anglash jarayonining me'yorida kechishiga ota-onasi yoki yaqinlari, pedagog xodimlar xalaqit bermasliklari zarur. Bolaning o'z g'oya va qiziqishlarini bermalol bayon qilishi uchun sharoit yaratib berishi, uni diqqat bilan tinglashi zarur.

Buyuk siymolarimizdan biri Abdurahmon Jomiy tarbiyachi-muallimlar aql-iqrokli, adolatparvar bo'lishi va o'zini munosib tutishi kerakli haqida aytib o'tgan.

Albatta, yosh avlodga ta'lim-tarbiya beruvchi muallim aql-idrokli, yuksak salohiyatli, adolatli va shu bilan birga, odob-axloqli, zamonaviy axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi lozim. Tarbiyachi bolalarda ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otishi va bolalar orasida do'stona muhit yaratishi kerak. Bolalar bilan

marshg'ulot davomida ularda turli hissiyotlarni, ya'ni bir-biriga mehrli bo'lish, do'stining yutuqlaridan quvonish, ular bilan biror narsani baham ko'rish kabilarni shakllantirishi lozim. Bunda u turli o'yinlardan foydalanishi mumkin. Bilamizki, bolalarga ta'lim-tarbiya berishda, ularda turli his-tuyg'ularni shakllantirishda, o'zini anglash va o'zini idrok qilishga o'rgatishda o'yin eng asosiy faoliyatdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hissiyotlarini rivojlantirish uchun turli o'yinlardan foydalanishimiz mumkin. Masalan: "Rassom" o'yini, "Agar shunday bo'lsa, nima bo'lar edi?", "Kayfiyatni aniqla" va boshqalar.

"Rassom" o'yini.

Topshiriqlar: qog'ozda turli xil his-tuyg'ularni ifodalovchi ko'nikmalarni rivojlantirish: ajablanish, qo'rquv, quvonch, g'azab, qayg'u, to'g'ri nutqni shakllantirish.


Materiallar: turli xil hissiy holat va hissiyotlarga ega bolalarni tasvirlaydigan kartalar.

O'yin jarayoni:

O'yin ishtirokchilariga turli hissiy holat va hissiyotlardagi bolalar tasvirlangan beshta karta taqdim etiladi.

Bitta kartani tanlab, tanlangan hissiy holatga asos bo'lgan voqeani chizish kerak.

O'yin oxirida rasmlar ko'rgazmasi o'tkaziladi. Bolalar lavha qahramoni kimligini taxmin qilishadi va ushbu ish muallifi tasvirlangan holatni aytib berishadi.



**2-rasm. Bolalarning turlicha his-tuyg'ulari aks etgan tasvir**

Haqiqatan ham bolaning shaxs bo'lib shakllanishida va uning barkamol, aql-idrokli inson bo'lib, hayotda o'z o'rnini topishida keng dunyoqarashga ega bo'lishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Turli jamiyatda yashovchi insonlar turli-tuman fikrlaydilar.

Tayyorlov guruhi bolalar mavqeyidagi o'ziga xos xususiyat ularning ijtimoiy zonasini kengaytirishdir. [7] Bu yoshdagi bolalar uchun ijtimoiy moslashish va muloqotchanlik juda zarur. Bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga borgan vaqti guruhdagi bolalarga e'tibor bermasligi mumkin, keyinchalik esa o'ziga yoqqan bola bilan do'st tutinib, birga o'ynashi mumkin. 6-7 yoshli bolalar yangi muhitga qadam qo'ygan vaqtlarida ham atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatga kirishadi.

R. Ismayilova o'z maqolasida "Turli yoshdagi bolalarning qilayotgan ayni bir xildagi xatti-harakatlari turlicha maqsadda bo'lishi lozim" deb aytgan [8]. Haqiqatan ham har bir bolaning harakatlaridagi maqsad turlichadir.



Pedagoglarimizdan N.M. Quchqorova maqolasida “Bolaga ta’lim-tarbiya berish jarayoni qanchalik erta boshlansa, natijasi ham shuncha erta namoyon bo’ladi. Bu esa insonning kelajakdagi butun hayot tarziga o’z ta’sirini o’tkazadi” deya fikr bildirgan [9].

R.M. Madirimova maqolasida “Ustozning eng buyuk burchi – uning xalqqa nafi tegadigan, aql-idrokli, qobiliyatli, uquvli shogirdlar tayyorlashidir” [10] degan fikrlarni aytib o’tgan.

Ota-onalar va bolalarga bilim ulashuvchi pedagoglar kelajagimiz poydevori bo’lmish bolalar taqdiriga yuksak mas’uliyat bilan qarashlari zarur.

### **XULOSA VA TAVSIYALAR**

Xulosa o’rnida aytadigan bo’lsak, ijtimoiylashuv jarayoni ham bolaning bilim olishida, o’z tengdoshlari bilan jamoaviy o’yinlar o’ynashida, ular bilan muloqotga kirishishida asosiy o’rinni egallaydi. Bolaning ijtimoiy- hissiy rivojlanishi uning hayoti davomida muhim rol o’ynaydi, chunki bu uning kelajakda rivojlanishi uchun asos bo’ladi. Bola uchun maktabga tayyorgarlikda psixologik, ijtimoiy jihatdan ham tayyor bo’lishi muhimdir. Bolaning ijtimoiylashuvi, kattalar tomonidan qo’llab-quvvatlanishi unda bilim olishga yanada intilish, ayrim faoliyatlarda faollikning oshishiga sabab bo’ladi. Bolada qanchalik o’zini anglash jarayoni kechsa, bola o’ziga ishonsa, u yanada yuksaklikka intiladi, yangi narsalar o’rganadi. Hissiy rivojlanish esa, bolada o’ziga va atrofdagilarga nisbatan ishonch hissini oshiradi. Qisqa qilib aytganda, ijtimoiy-hissiy rivojlanish bola uchun butun umri davomida ta’lim olishi uchun kalitdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 19-oktabrda Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag’ishlangan yig’ilishdagi nutqidan <https://president.uz>
2. O. Hasanboyeva, D. Xoliqov, Oila pedagogikasi. T., “Aloqachi”, 2007, 10-bet.
3. S.X. Jalilova, S.M. Aripova.; Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent: “Faylasuflar” nashriyoti, 2017. – 74-bet.
4. “Bolalik akademiyasi” platformasi. <https://bolakadem.uz>
5. O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun davlat o’quv dasturi /Takomillashtirilgan ikkinchi nashr / III-bob // 3.1. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari. Toshkent – 2022. – 41-bet.
6. N.M. Quchqorova., R.S. Nuraddinova. Ilk qadam davlat o’quv dasturi namunasida o’tkaziladigan mavzuli faoliyatlarni tashkil etish. – O’quv qo’llanma.Toshkent shahri. “BOOKMANY PRINT”, Toshkent – 2022. – 42-bet.
7. F. Qodirova, Sh. Toshpo’latova, N. Kayumova, M. A’zamova. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. – 385-bet.
8. R.I. Ismayilova. “Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy motivlarini shakllantirish xususiyatlari”. Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации– Society and innovations Special Issue – 02(2023) / ISSN 2181-1415. – 186-bet.
9. N.M. Quchqorova. “Bo’lajak tarbiyachilarni raqamli texnologiyadan foydalanishga o’rgatish”. Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации–Society and innovations Special Issue –02(2023) / ISSN 2181-1415. – 190-bet.
10. M.R. Madirimova. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy matematik rivojlantirish va o’qitishning zamonaviy texnologiyalari”. Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 02(2023) / ISSN 2181-1415. – 214-bet.